

IS'HOQXON IBRAT SHE'RIYATIDAGI METAFORALAR LINGVOPOETIKASI

Murodova Gulchiroy Muhiddinovna,
Buxoro davlat universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Is'hoqxon Ibrat she'riyatiga badiiy va lingvistik jihatdan yondashilib, uning she'rlarida qo'llanilgan metaforalarning xususiyati, o'ziga xos jihatlari tadqiq qilinadi. Bundan tashqari, metaforalarning Is'hoqxon Ibrat she'riyatida tutgan o'rni, ahamiyati haqida batafsil ma'lumot berilib, yuqoridagi fikrlarga isbot tariqasida Is'hoqxon Ibrat she'rlaridan namunalar keltirilib, tahlil qilinadi. Metaforalarning Is'hoqxon Ibrat ijodidan o'rin olishi muallif ijodining mazmunini yanada kuchaytirishga yordam bergani maqolada o'z aksini topgan.

***Kalit so'zlar:** Is'hoqxon Ibrat she'riyati, metafora, jonlantirish, o'xshatish, tashxis, intoq.*

LINGUOPOETICS OF METAPHORS IN THE POETRY OF ISHAKHKHAN IBRAT

Murodova Gulchiroy Muhiddinovna,
Graduate student of Bukhara State University

ABSTRACT

In this article, Ishaqkhan Ibrat's poetry is approached from an artistic and linguistic point of view, and the characteristics and specific aspects of the metaphors used in his poems are studied. In addition, detailed information is given about the role and importance of metaphors in the poetry of Ishaq Khan Ibrat, and samples from

Ishaq Khan Ibrat's poems are presented and analyzed as proof of the above points. It is reflected in the article that the use of metaphors in the work of Ishaqkhan Ibrat helped to strengthen the content of the author's work.

Key words: *Ishaqkhan Ibrat's poetry, metaphor, revitalization, simile, diagnosis, speech.*

KIRISH

Muloqot jarayonida yozuvchi bir maqsadni – tilda mavjud bo‘lgan birliklar vositasida o‘quvchiga ma‘lum bir ma‘lumotni yetkazish va unda bayon qilingan fikrlarga nisbatan munosabat uyg‘otishni ko‘zda tutadi. Shu bois tilning turli sathlariga oid bo‘lgan birliklar o‘z lingvistik vazifasidan tashqari qo‘shimcha ma‘nolarga ham ega bo‘ladi. Bu birliklar o‘quvchiga xabar yetkazishdan tashqari yozuvchining sub’yektiv munosabatini aks ettiradi, matnga bo‘yoqdorlik-ta’sirchanlik ruhini kiritadi. Tilimizda ifoda-tasvir vositalari doirasida qaraluvchi birliklar nutq ob’yektini tasvirlash asnosida unga obrazlilik bag‘ishlaydi. Ma‘lumki, badiiy matnlar, xususan, poetik matnlar uchun ma‘noning o‘xshashlik asosida ko‘chishi xos bo‘lib, bu xususiyat ifoda-tasvir vositalaridan biri bo‘lgan metaforaning muhim belgisini tashkil etadi. Og‘zaki va yozma nutqda emotsional ekspressiv munosabat ifodalashning eng qulay vositasi bo‘lgan metaforalar asosida obrazlilik yotadi. Obrazlilik esa har qanday metaforik qo‘llashga xos hodisa sifatida nutqning turli ko‘rinishlarida, xususan, badiiy nutqda muhim o‘rin tutadi. “Badiiy nutq obrazli nutqdir. Badiiy nutqning obrazliliigi so‘zlardan, grammatik formalardan o‘z va ko‘chma ma‘nolarida maqsadga mos foydalanish, nutqda obrazli vositalarni, stilistik usullarni o‘rinli qo‘llash natijasida kuchayadi. Shunga ko‘ra badiiy nutqda obrazlilikni ta‘minlovchi ham lingvistik, ham stilistik faktorlar mavjud. Nutqiy obrazlilikni ta‘minlovchi lingvistik faktor bevosita so‘z qo‘llash bilan bog‘liq. Bu jarayon tilning so‘z boyligidan (sinonim, antonim, omonim, paronim so‘zlardan, frazeologizmlardan, so‘z birikmalaridan) nutqqa mos qo‘llash natijasida yuzaga keladi.

Stilistik faktor bevosita obrazli vositalar, stilistik usullardan foydalanish natijasida vujudga keladi”.[2,85]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbek tilshunosligida tilning ifoda-tasvir vositalari qatori metafora hodisasining yuzaga kelish omillari, nutq ko‘rinishlarida tutgan o‘rni ma’lum darajada tadqiq etilgan va metaforalar lingvistik va badiiy metaforalarga ajratilgan. Poetik matnlar bo‘yicha kuzatishlar olib borgan B.Umurqulovning ko‘rsatishicha, “til metaforasi badiiy metaforadan o‘xshashlikning formasiga ko‘ra farqlanadi: til metaforasi ikki predmet orasidagi bevosita yoki ochiq o‘xshashlikka asoslangan ko‘chimdir. Masalan: ko‘z so‘zining asosiy leksik ma’nosi “ko‘rish uchun xizmat qiluvchi tana a‘zosi” bo‘lib, derazaning ko‘zi, uzukning ko‘zi, buloqning ko‘zi kabi ko‘chma ma’nolarga ega. Badiiy metaforada predmetlar orasidagi o‘xshashlik asosida badiiy bo‘yoq, obrazlilik ifodalanadi. Demak, badiiy metafora til metaforasidan, dastlab, fikrni obrazli ifodalashi bilan ajralib turadi. Badiiy metaforada o‘xshashlik yashiringan holda bo‘ladi”. Tilga oid deb talqin etiluvchi metaforalar nutq jarayonida faol qo‘llanilganligi tufayli o‘zining dastlabki obrazlilik, ta’sirchanlik darajasini yo‘qotib ulgurgan. Shu bois ularning muomalada qo‘llanishi nutqqa ta’sirchanlik bag‘ishlash xususiyatini yo‘qotgan deyish mumkin. Badiiy metaforalarning hosil bo‘lishi bevosita ijodkorning poetik tafakkuri bilan bog‘liq. Bunday kutilmagan, g‘ayri odatiy tarzda yuzaga keluvchi metaforalar she’riyatda keng qo‘llaniladi va ko‘pchilik hollarda poetik metaforalar ham deb ataladi.

Prof. S. Usmonovning fikricha, “Badiiy adabiyotda metafora o‘xshatishning qisqargan formasi bo‘lib, predmetning nomi vazifasini bajarmaydi. Chunki bunda so‘z shu nutqiy parchada ilgari hech qanday anglanmagan predmet yoki hodisani anglatadi. Metafora predmetning doimiy nomi bo‘lib qolgandagina tilshunoslik fani tekshiradigan hodisa hisoblanadi. Chunki bunday metafora umumxalq tiliga xos, badiiy metafora esa, yozuvchining individual priyomiga xosdir”[4, 34-35]

NATIJALAR

Metaforalarning asosiy vazifasi badiiy matnga obrazlilik bag'ishlash hisoblanadi. Shuning uchun u nutqning og'zaki yoki yozma ko'rinishlarida fikrni obrazli ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Masalan, so'zlashuv uslubida bu vositaning badiiy-estetik imkoniyatlari qisman aks etsa, badiiy matnlarda kuchli ta'sirchanlikni yuzaga keltiruvchi estetik hodisa sifatida qo'llaniladi.

O'shal **bulbul qilar afg'on** sahar vaqti chaman ichra,

Qo'nar gul deb tikan uzra sahar vaqti chaman ichra.

Qilar bag'rini bulbul qon, tikan uzra beray deb jon,

Bo'lar gul zavqidin qurbon sahar vaqti chaman ichra. [1]

Yuqoridagi misralarda keltirilgan metafora ya'ni o'xshatish she'rning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Unda keltirilgan "bulbul qilar afg'on", "qilar bag'rini bulbul qon" metaforalari insonga xos xarakter-xususiyatning bulbulga ko'chirilganligini ko'rsatadi.

Metaforaning yana bir jihati obrazlilikdan tashqari fikrlarning qisqaligi, aniqligini ta'minlash hisoblanadi.

Ibrat taxallusimdur, ahfodi Hazrati Sulton,

Shauhratda-Hoji to'ra, **ma'vosi – To'raqo'rg'on**. [1]

Tilshunoslikda an'anaviy metaforalar atamasi ham mavjud bo'lib, bunda ko'proq zoonimlar yoki afsonaviy mavjudotlar nomlari asosida yuzaga kelgan metaforalar nazarda tutiladi. Poetik metaforalarda xabar, ta'sir, tasvir, ruhiyat o'zaro uyg'unlashib, birlashib ketadi. Boshqacha aytganda, ma'no ko'chishining bu turi hosila ma'noning yuzaga kelish ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

Tilshunoslikda ifoda-tasvir vositalari tahliliga bag'ishlangan ishlarda metaforalarning mazmuniy tomoniga alohida e'tibor berilib, badiiy nutqqa obrazlilik

baxsh etuvchi vositalardan biri jonlantirish ekanligi ta'kidlanadi. Ularda ko'rsatishicha, "jonlantirish odamlarga xos bo'lgan xislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda, qush kabilarga ko'chirish orqali paydo bo'ladigan tasvir usulidir. A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo'ng'urov, H.Rustamovlar tomonidan yaratilgan "O'zbek tili stilistikasi" kitobida jonlantirishga "kishilarning harakatlari, his-tuyg'ulari, so'zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko'chirilishi" sifatida izoh beriladi. [3, 245]

O'shal bulbul bo'lur dog'lar, chamanni gasht etib chorlar,
Qizil gulni tilab yig'lar sahar vaqti chaman ichra.
Chiqar bulbulni afg'oni, chaman ichra oqib qoni,
Tasadduq gul uchun joni sahar vaqti chaman ichra. [1]

Jonlantirish metaforaning bir ko'rinishi sifatida badiiy, xususan, poetik matnlarda ko'p ishlatiladi. Bunda ijodkorning aslida jonsiz bo'lgan narsa va predmetlarga, hodisalarga xuddi tirik insonlarga qilinganidek munosabatda bo'ladi, ularni fikrlashga, so'zlashga yoki ma'lum xatti-harakatlarni bajarishga undashi zamirida ma'lum bir kommunikativ maqsad yotadi. Badiiy matnlarda jonsiz narsa va predmetlarning insonga xos xususiyatlarga ega bo'lishi, fikrlashi, xatti-harakati asosida aslida insonlar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatib berish, ularni obrazli, ta'sirchan tarzda o'quvchiga yetkazish ko'zda tutiladi.

O'zbek mumtoz adabiyotida qadimdan tasviriy vosita sifatida qaraluvchi jonlantirishning tashxis hamda intoq deb yuritiluvchi turlari o'zaro farqlangan. Poetik nutqda shoir o'z fikrlarining obrazlilikini ta'minlash uchun ko'pincha tashxisdan foydalangan. Ijodkor o'z fikrlarini metafora vositasida ifodalash bilan kutilmagan obrazlilik hosil qilgan va o'zi yaratgan obraz orqali o'quvchini tushunishini osonlashtirgan. U bu orqali o'quvchining voqelik faktlariga to'g'ri munosabatda bo'lishiga hamda ularni haqqoniy baholashi uchun zamin yaratgan. Masalan:

Vasingga yeturga Ibrat asru,

Hajr ilkig‘a muftalo bo‘lubdur. [1]

Jonlantirishning ikkinchi turi bo‘lgan intoqda esa nutq ob‘yektini xuddi insonlardek gapirtirish ko‘zda tutiladi. Jonlantirishning bu turi ko‘proq bolalar adabiyotida ko‘p uchraydi. Intoq masallarda alohida uslubiy maqsad bilan qo‘llaniladi. Unda insoniy kamchiliklar predmetlar misolida o‘zining obrazli ifodasiga ega bo‘ladi. Intoqda nutq ob‘yektini bo‘lgan narsa va predmetlar, hayvonlar xuddi insonlardek muomalaga kirishadilar, so‘zlaydilar.

Poetik nutq bo‘yicha kuzatishlar olib borgan B.Umurqulov badiiy asarlarda uchraydigan metaforalar tuzilishiga ko‘ra asosan bir hamda ko‘p tarkibli bo‘lishini, darslik va ilmiy adabiyotlarda ularga nisbatan leksik va birikmali metafora, bir tarkibli va ikki tarkibli metafora kabi atamalar qo‘llanilishini ta’kidlaydi. U poeziyada uchraydigan metaforalarni tuzilishiga ko‘ra sodda metaforalar va kengaygan metaforalarga ajratadi.

Vasl qushi rom etarga ashkim

Yuz uzra to‘kuldi dona-dona.

Hajring g‘ami daftarini yozdim,

Ko‘nglimni etib kitobxonam.[1]

Yuqoridagi baytda uchragan “vasl qushi”, “Hajring g‘ami daftarini”, “ko‘nglim kitobxonam” metaforalari matnning estetik ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, metaforalar matn turlari orasida badiiy matnda faol ishlatiladi. Metafora badiiy matnning obrazlilikini oshirishda, ta’sirchanligini ta’minlashda, bo‘yoqdorligini yuzaga keltirishda muhim vosita sanaldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Is'hoqxon To'ra Ibrat. Tanlangan asarlar(2020). "Ma'naviyat", 48-69.*
2. *Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M., Umurqulov B. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. – Toshkent: Fan, 1988. – 85 b.*
3. *Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1983. – 245 b.*
4. *Usmonov S. Metafora. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. – Toshkent, 1964, 4-son, - 34-35 b.*
5. www.wikipedia.org
6. www.hozir.org